

ARAB HARFLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xolmuhammedova Osiyoxon Zaynobiddin qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Sharq filologiyasi fakulteti

Arab tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

osiyoxolmuhammedova@gmail.com

Umurzakova Oygul Umarovna

Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi

va amaliyoti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola arab harflari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganilgan. Maqolada arab harflari, ularning shakllanishi, harflarning morfologik va fonetik o'zgarishlari, shuningdek, arab alifbosining ko'p asrlik tarixidagi rivojlanish jarayonlari tahlil etilgan. Arab harflari, ularning yozilish usullari, nuqtalar va harakatlar tizimi kabi o'ziga xos jihatlar ko'rib chiqilib, ularning nutq va yozuvdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar va iboralar: arab alifbosi, arab harflari, yozuv tizimi, harakatlar, qisqa unlilar, cho'ziq unlilar.

Аннотация. В данной статье изучены арабские буквы и их уникальные особенности. В статье анализируются арабские буквы, их формирование, морфологические и фонетические изменения, а также процессы развития арабского алфавита на протяжении веков. Рассматриваются такие особенности, как способы написания арабских букв, система точек и огласовок, и подчеркивается их роль в речи и письме.

Ключевые слова и фразы: арабский алфавит, арабские буквы, система письма, огласовки, краткие гласные, долгие гласные.

Annotation. This article examines Arabic letters and their unique features. The study analyzes Arabic letters, their formation, morphological and phonetic changes, as well as the developmental processes in the centuries-long history of the Arabic alphabet. Key characteristics such as the writing methods of Arabic letters, the system of diacritical marks and vowel signs are explored, highlighting their role in speech and writing.

Keywords and phrases: Arabic alphabet, Arabic letters, writing system, diacritical marks, short vowels, long vowels.

Arab harflari va ularning o'ziga xos xususiyatlari arab tilining tarixiy rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Arab yozuvi bosqichma-bosqich shakllanib, o'zgarib borib, hozirgi kunda nafaqat arab dunyosining, balki dunyoning turli burchaklaridagi musulmonlar uchun asosiy yozuv tizimiga aylangan. Arab yozuvining rivojlanishi, xususan, harflarning shakllanishi va ular orasidagi fonetik, morfologik o'zgarishlar o'ziga xos jarayonlarni talab etgan. Bu maqolada arab alifbosining tarixiy rivojlanishi, uning yozilish usullari, va arab harflarining lingvistik va madaniy ahamiyati tahlil etiladi.

1. Arab alifbosining shakllanishi

Arab harflari milodiy 6-7 asrlarda shakllana boshlagan. Ilk arab yozuvi Hira, Makka va Madinada rivojlanib, Qur'onning yozilishidan so'ng o'zgarishlar yuzaga kelgan. Bu davrda arab harflari og'zaki til bilan chambarchas bog'lanib, har bir harf o'ziga xos fonetik va morfologik xususiyatlarga ega bo'lgan.

Arab tilining harflari insoniyat tarixidagi eng boy va ma'naviy belgilar qatoridan joy olgan. Ular boshqa tillardagi kabi oddiy harflar emas, balki Qur'onning kalomi, ilm-fan, madaniyat va san'atning asosi sifatida yuqori o'ringa ega. Arab tilidagi har bir harf - hikmatga to'la bir olamdirdir. Insonlar arab harflariga oddiy yozuv yoki tovush sifatida emas, balki ularning ma'nolari va ruhiy ta'siri orqali yondashadilar.

"Arab harflari qog'ozdagi chiroyli shakl emas, balki qalbdan taralayotgan nurdir". Inson qalbi doim so'z sehriga oshufta, har bir harf esa aslida ulkan hikmatning tasviridir. Bu harflar o'zining oddiyliги va osonligi bilan boshqa harflardan ajralib turadi. Qur'on arab harflaridan iborat bo'lib, undagi har bir harf o'ziga xos baraka va ulug'likka ega.

2. Arab harflarining o'ziga xos xususiyatlari

Arab tilida harflar o'zgaruvchi shakl va tovushlarga ega bo'lib, har bir harf o'zining turli vaziyatlarga moslashish qobiliyatiga ega. Arab alifbosida nuqtalar qo'shilishi, so'zlar orasidagi bo'sh joylar va harakatlar tizimi tilning aniqligi va to'g'ri o'qilishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Arab tilining alifbosida 28 ta harf mavjud. Qiziqarli jihat shundaki, ularning barchasini undosh tovushlar tashkil qiladi. Harflar o'qilish, yozilish va talaffuz qilish jihatlaridan va alifboda unli harflar yo'qligi bilan boshqa harflardan farq qiladi. Arab tilidagi harflar o'ngdan chapga yoziladi va o'qiladi. Harflarning alifbodagi shakli, so'zning boshlanishidagi, o'rtasidagi va oxiridagi shakllaridan iborat. Ammo 28 ta harfning barchasi ham o'zidan keyingi harfga ulanib yozilmaydi. Masalan, ا (alif), د (dal), ذ (zal), ر (ro), ز (zay) va و (vav) harflari o'zidan keyingisiga ulanmaydi. Boshqa barcha 22 ta harf o'zidan keyingi hamda oldingi harflar bilan ulanib yoziladi.

Unlilarga kelsak, ular alohida harflar emas, balki harflarning ustiga yoki ostiga qo'yiladigan kichik belgilardir. Unli harakatlar yordamida harflar harakatga keladi. Arab tilida uchta asosiy unli harakat mavjud: a, i, va u. Har biri qisqa va cho'ziq unlilarga bo'linadi.

1. Qisqa unlilar:

- "a" harfi yozuvda (fatha) harakati bilan ifodalanadi.
- "i" harfi yozuvda (kasra) harakati bilan ifodalanadi.
- "u" harfi yozuvda (domma) harakati bilan ifodalanadi.

2. Cho'ziq unlilar:

- ✓ "aa" harfi yozuvda ا (alif) harfi yordamida ifodalanadi.
- ✓ "ii" harfi yozuvda ي (ya) harfi yordamida ifodalanadi.
- ✓ "uu" harfi yozuvda و (vav) harfi yordamida ifodalanadi.

Bu unlilar talaffuzda ikki barobarga uzaytiriladi.

Arab harflarining talaffuzi va yozilishidagi farqlar tilni o'rganishda ba'zi qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, ona tili arab tili bo'lmagan

o'rganuvchilar ba'zi harflarning talaffuzida qiynalishi mumkin. Masalan, arab harflari tovushning chiqish joyi va hosil bo'lish usuliga qarab farqlanadi. Shuning uchun, arab harflarini o'rganishda talaffuzga alohida e'tibor qaratish kerak.

Arab tilining harflari nafaqat til o'rganish, balki Qur'onni to'g'ri o'qish va tushunish uchun ham juda muhimdir. Har bir harfning o'ziga xos talaffuzi, sifatlari va ta'siri bor. Arab harflarining sifatlari ham ularning talaffuzini belgilaydi. Masalan, arab harflari qattiq yoki yumshoq, yuqori yoki past tovushli bo'lishi mumkin. Ba'zi harflar ko'ksdan yoki og'izdan chiqarilgan tovushlarni bildiradi, ba'zilari esa yumshoq va past tovushlarni hosil qiladi. Bu sifatlar talaffuzda yanada aniqroq va tushunarli bo'lishi uchun juda muhimdir.

Arab tili grammatikasi va talaffuzi ingliz yoki rus tillaridan farq qiladi, shuning uchun ularni o'rganishda maxsus yondashuvlar zarur. Har bir harfning o'ziga xos talaffuzi va shakli mavjud bo'lib, bu tilni o'rganishda murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ammo, arab harflarini o'rganish orqali nafaqat tilni, balki musulmonlarning madaniyatini, ilm-fanini va tarixini ham chuqurroq tushunish mumkin.

Arab alifbosi nafaqat yozuv tizimi, balki arab madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Uning rivojlanishi va qo'llanilishi arab xalqining tarixiy, ilmiy va dini merosi bilan chambarchas bog'liqdir. Arab harflarining estetik jihatlari, ya'ni arab kaligrafiyasi, butun dunyo bo'ylab mashhur bo'lib, ko'plab san'at asarlari va diniy matnlar shu yozuvda yaratilgan.

Arab harflari va ularning o'ziga xos xususiyatlari arab tilining noyobligini, tarixiy va madaniy ahamiyatini namoyon etadi. Yozuv tizimining harflar orqali ifodalangan fonetik va morfologik o'zgarishlar tilning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Arab harflari va ular bilan bog'liq qo'shimcha belgilar, masalan, harakatlar va nuqtalar, tilning aniq o'qilishi va tushunilishiga imkon yaratadi. Arab alifbosi nafaqat yozuv tizimi, balki arab madaniyati va san'ati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning tarixi va rivojlanishi o'rganishga arziydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hasanov M., Abzalova M. Arab tili grammatikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
2. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. – Toshkent, 2024.
3. Maqsudov, A. Arab Harflari va Ularning Tashkiliy Strukturalari. – Toshkent, 2020.
4. www.arabic.uz
5. www.ziyouz.com